

ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA ANTONIM SO'ZLARNING QO'LLANISHI

Sattorova Ferangiz Feruz qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8126020>

ANNOTATSIYA: *Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan unumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar adiblar, shoirlar maqsadini ochib berishda asosiy vosita sanaladi. Ushbu maqolada antonimlarning Zebo Mirzo she'riyatida qo'llanish xususiyati o'rganilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Antonimiya, antiteza, kontrast, kontekstual antonimlar.*

“Antonimiya – so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama –qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligidagi antonim deyiladi”.¹

Tilda antonim so'zlarning mavjudligi, badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini taminlashda qulay vositalardan biridir. Mumtoz she'riyatda ham bu ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri bo'lib, u tazod deb yuritiladi. Yevropa tilshunosligida bu san'at “antiteza” deyiladi.

“Antiteza – badiiy asrda bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash, qarshilantirish san'atidir”.²

Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarni farqli tomonlarini ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda kuchli stilistik vosita antonimlardan o'rinli foydalanishadi. Zebo Mirzo she'rlarida ham antonimlar ko'p qo'llangan bo'lib, ular xilma-xil ma'nolarni ifodalaydi. Shoira antonimlarni turli voqea-hodisa, shaxs yoki predmetlarning xarakteristikasini berishda, lirik qahramonning ichki his-tuyg'ularini, ziddiyatlarini ifodalashda keng qo'llagan.

Shoira she'rlarida yaxshi-yomon, topmoq-yo'qotmoq, kutish-ketish kabi antonimlar uchraydi. Masalan:

Nomozshomgul yumdi ko'zini
Ko'zlarini yulduz yopdimi?
Kutganingda hech o'xshatmading
Ayt, *ketishim* o'xshayaptimi?

Men-ku, o'lib bo'ldim, shudir ishq rasmi
Ammo siz g'amlarga chidaysiz qandoq
Sevgilim, sevgilim, og'ir emasmi
Bir go'zal sevgini *topib, yo'qotmoq*

Zebo Mirzoning so'zlarni qo'llashdagi yana bir mahorati shundaki, shoira ijobiy narsalarni yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi, zarurat tug'ilganda antonimlarni qo'llaydi. Hayotning butun chuqurligi, murakkabligi, ziddiyatlarni kontrastli obrazlar asosida ochib berishga harakat qiladi:

Menga erk berdi shu kuni umr,
Mahbus hayotimni ko'mib g'origa

¹Mirtojiyev.M “Hozirgi o'zbek adabiy tili” – Toshkent, 2004.

²Yo'ldoshev.M “Badiiy matn va uning linvopoetik tahlili asoslari” – Toshkent: Fan 2006.

Bir yilda bir marta chiqib boraman
Marhum tiriklikning baland doriga

Ammo u kelmaydi...
Kelib ketadi
Eshigimda g'arbu, sharqu, ajamlik
Dunyo bo'lmog'i uchun *mukammal*
Faqat sening o'rning qiladi *kamlilik*

Biroq kelgunicha *avvali-oxirim*
Tugab bitmasmikan mendagi sabot?

Hali *mudrab* yotgan dunyolaringni
Uyg'otib uchadi ruhim ovozi

Qancha *yaqin* borsam,shuncha *olisdirsan*
Ey Rizvoning bir bo'lgali,jonim Vatan!

U.Tursunov,A.Muxtorov,Sh.Rahmatullayevlarning“Hozirgi o'zbek adabiy tili”
darsligida ikki xil antonimiya ko'rsatilgan:

1.Lug'aviy antonimiya - lug'aviy birliklarning o'zaro antonim bo'lishi: saxiy-baxil,
og'ir-yengil kabi.

2.Grammatik antonimiya - grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi.Bu juda
kam uchraydi: -dan,-ga (uydan-uyga)kabi.Morfemalar antonimiyasi, asosan,leksema
yasovchilarga to'g'ri keladi: -li,-ba(-bo),
-siz,-be,-no kabi.Bu holatni shoira ijodidagi quyidagi misra misolida ko'rishimiz mumkin:

Baxtdan baxtsizlik top,qaytar oningda,
Menga kelgan sovchi, o'lim bog'lasin

Darslikda yana,lug'aviy antonimlarning ham uch xil:leksik antonimiya, frazeologik
antonimiya,leksik-frazeologik antonimiya kabi turlari mavjudligi aytilgan.Bu uchala
turdagi antonimiyadan Zebo Mirzo she'riyatida leksik antonimiya eng ko'p
qo'llanilib,ijodkor oq-qora, unitish-bilish,mavjudlik-yo'qlik kabi antonimlardan o'z fikr-
g'oyalarini ochishda unumli foydalangan:

Bilaman:ismi *oq* -jismi *qoralar*
Bir mas'um sevgimning dilini yedi.
Ming yil emas, million yil kutganimda ham,
U meni baribir tan olmas edi.

Tushlarimda tushib ketsaydim
Bir lahza o'zimni *unutsam*... bir lahza o'zimni *bilsaydim*

Ko'klarda ruhimiz qo'shilmidi?
Nechun *mavjudmizu*,nechun *yo'qdekmiz*...

Shoira voqelikni bir- biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda leksik antonimlardan
unumli foydalanib o'ziga xos individual obrazlar yaratgan. Ba'zan ayol xarakterini, intim
tuyg'ularini ifodalashda ham antonimlardan foydalangan:

Go'zal hislarimiz etdilar barbod
Ag'yorning ozori,do'st ag'yorligi

Ismingni o'paman ...kimga g'alati

Baxtsiz tunlarimning baxtiyorligi

“Oh”ursam “oh”imda osmon chayqalur,
Jismimda olovli isyon chayqalur,
Endi *oshkor* qo‘ying bu mayi nobni
Harchandki,
Dilda ishq *pinhon* chayqalur

“*Qol*” deb o‘tinmaysan

“*Ket*” deb aytmayman

O‘rtamizda azob - otmagan tong u

Zebo Mirzo she‘riyatida kontekstual antonimlar ham keng qo‘llangan. U.Tursunov,A.Muxtorov,Sh.Rahmatullayevlarning“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”darsligida kontekstual antonimlar haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: Leksik ma‘no bilan leksik qo‘llash orasidagi antonimlik munosabat kontekstual antonimiya deb nomlanadi.Bunday antonimiya har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi,nutqdan tashqarida yo‘qqa chiqadi, ko‘pincha individual nutqqa xos bo‘ladi.

Shoira she‘riyatida ham ayol muhabbatining o‘ziga xosligi, u naqadar kuchli, naqadar o‘tli bo‘lmasin, otashin tuyg‘ular haqida ochiq aytmasligi kontekstual antonimlar orqali ochib berilgan. Bu turdagi antonimlar shoira qalami ostida muhabbat qanchalar totli azob,qanchalar dardli saodat ekanligini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi.Yorug‘ so‘zining antonimi qorong‘u so‘zidir. Lekin,quyidagi misralarda yorug‘ va xazon so‘zlari kontekstual antonimlik hosil qilgan:

Yorug‘ lahzalarning ovozi tindi

Qo‘shilib kelganda *xazonlar* seli.

Bizga malumki antonimlar, asosan,belgi anglatuvchi leksemalarda mavjud. Shunga ko‘ra ular sifat va ravishdoshda ayniqsa ko‘p.Ot va fe‘l turkumiga xos bo‘lgan antonimlar Zebo Mirzo she‘riyatida shoira g‘oyalarini ochishga xizmat qilgan:

O‘zi portlab chiqqan *chashmaday*,

Yoningizdan oqdim-u ketdim

O‘zgalarga *daryo* tutdim-u

Oh onam-a, Sizni unutdim.

Xulosa qilib aytganda,hayotda har bir narsa o‘z ziddi bilan o‘lchanadi.

Zebo Mirzo antonimlardan shoirona maqsadlarini ochib berishda,his-tuyg‘ularini ifodalashda g‘oyat san‘atkorona foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirtojivev.M Hozirgi o‘zbek adabiy tili-Toshkent -2004.
2. Yo‘ldoshev.M Badiiy matn va uning lingvopetik tahlili asoslari-Toshkent: Fan 2006.
3. Rahmatullayev. Sh Hozirgi o‘zbek adabiy til.
4. Zebo. M Ishq.

Web-saytlar:

1. Tafakkur.net